

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/6 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Horov Shuxrat Suvonovich

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ
ПРИ УЧАСТИЕ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИИ 8-13

Jo'raqulov Boburmirzo, Masidikov Elyor

TUNKAT YODGORLIGIDAN TOPILGAN O'RTA ASRLAR OILAVIY HAMMOMI 14-19

Allaberganova Ro'zigul

MUSTAQILLIK YILLARIDA URGANCH SHAHRI QIYOFASINING O'ZGARISHI 20-23

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Dr. Abror Kucharov and Dr. Jyoti Meshram

INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN:
A CATALYST FOR INDIAN INVESTMENT 24-38

Raximbayev Akmal Azatboyevich

HUDUDLARDA SANOAT AGLOMERATSIYALARINI SHAKLLANTIRISH
IMKONIYATLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH 39-46

Mamajonova Nodiraxon Alisher qizi

QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI 47-57

Xasanova Dildora O'ktam qizi

QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIGA IXTISOSLASHGAN XO'JALIK VA KORXONALAR
FAOLIYATIDA ISHLAB CHIQARISH 58-71

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Абдусаммарова Сумора

ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИУМ:
ФИЛОСОФСКО-ПРАВОВОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ 72-78

Kubatov Shahobjon

UYG'UNLIK G'OYASI VA IJTIMOIIY DAVLAT HAQIDAGI TA'LIMOTLARNI
SINTEZ QILISH MASALALARI 79-88

Uralov Dilshodbek

ON HUMAN MORALITY AND PROFESSIONAL CULTURE
IN THE ETHICAL VIEWS OF IBN SINO 89-93

Tagaev Kamol

YANGI O'ZBEKISTONDA RAHBARLARNI SHAKLLANTIRISHDA
IJTIMOIIY LOYIHALARNING STRATEGIK AHAMIYATI 94-99

Xaydarova Zebiniso Nusratullayevna

EMPIRIZM, RATSIONALIZM VA KONSTRUKTIVIZM KABI TURLI EPISTEMOLOGIK
NAZARIYALARDA INSON MAVJUDLIGI MASALALARI 100-106

Mamadiyarova Malika

OILAVIY QADRIYATLARNING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARI 107-111

Xolova Umida Umedovna

MA'RIFAT VA MA'NAVIYAT UYG'UNLIGINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI:
TARIXIY-FALSAFIY TAHLIL 112-118

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Baxramova Dilovarxon Gazanfarovna

O'ZBEK VA ISPAN TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY
XUSUSIYATLARI..... 119-122

<i>Qozoqboyeva Dilfuzaxon Ilxomjon qizi</i> GENDER STEREOTYPES OF SPEECH OF UZBEK CHILDREN	123-128
<i>Pulatjonova Muxtasar</i> POLITENESS STRATEGIES IN ENGLISH AND UZBEK: A PRAGMATIC AND CROSS-CULTURAL COMPARISON	129-132
<i>Chernova Natalya Vasiliyevna</i> RUS BOLALARNING NUTIQA GENDERGA OID BELGILARNI SHAKLLANISHNING LINGVISTIK MEXANIZMLARI	133-136
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Komilov Avazbek</i> PROKURATURA ORGANLARI TOMONIDAN PROKUROR HUQUQIY VOSITALARINI QO'LLASH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	137-146
<i>Rasulov Jurabek Abdusamiyevich</i> XALQARO HUQUQ INQIROZI: ZO'RIQISH OSTIDAGI TIZIM	147-152
<i>Nishonov Abdulloh</i> ATOM ENERGIYASIDAN FOYDALANISH JARAYONIDA OBYEKT LARNI JOYLASHTIRISHDA XALQARO EKOLOGIK NORMALARNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING MILLIY QONUNCHILIKKA INTEGRATSIYASI.....	153-159
<i>Yusupdjanova Gulnoza Ilxomovna</i> JINOYAT PROTSESSIDA SUDNING FUNKSIYASI	160-167
<i>Tursoatov Sodik Xudoyor o'g'li</i> YUKSAK XIZMAT KO'RSATISH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA IFODALANISHI MASALALARI.....	168-174
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	175-179
<i>Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОБРАЗЦЫ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ: ПОНЯТИЕ И ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ	180-193
<i>Узбекова Дильшода Тулкиновна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ МЕР ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ	194-202
<i>Norboyev Bobur</i> LEGAL FRAMEWORKS FOR DIGITAL TECHNOLOGY APPLICATION IN LAND CADASTRE: INTERNATIONAL EXPERIENCES AND PRACTICES IN UZBEKISTAN	203-211
<i>Gafurova Shoirax Baxodirovna</i> XALQARO JINOYAT HUQUQIDA DALILLAR INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	212-216
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich</i> HARBIY XIZMATGA TAYYORGARLIK BOSQICHIDA O'QUVCHILARNING JISMONIY SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLAR: JISMONIY TARBIYA VA CHAQIRUVGA QADAR TAYYORGARLIK ASOSIDA.....	217-221
<i>Kamalova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda</i> KINEMATIKADAN OLIMPIADA MASALALARI: KINEMATIK MASALALARDA YUQORI DARAJALI YECHIM YONDASHUVLARI	222-227

Received: 5 July 2025
Accepted: 20 July 2025
Published: 30 July 2025

Article / Original Paper

ISSUES OF THE CONCEPT OF HIGH-QUALITY SERVICE AND ITS REFLECTION IN THE LEGISLATION OF UZBEKISTAN

Tursoatov Sodiq Khudoyor oğlu

Independent researcher

Institute of State and Law of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The article analyzes the concept of high merit in legal incentive policy and its meaning, characteristics, structure, classification of merit, approaches of researchers to the concept of merit, issues of expression of merit in the legislation on state awards of Uzbekistan.

Keywords: encouragement, legal policy, merit, concept of merit, characteristics, classification, expression of merit in legislation.

YUKSAK XIZMAT KO'RSATISH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA IFODALANISHI MASALALARI

Tursoatov Sodiq Xudoyor o'g'li

O'zbekiston Respublikasi FA Davlat va huquq instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada huquqiy rag'batlantirish siyosatida yuksak xizmat ko'rsatish tushunchasi va uning ahamiyati, yuksak xizmat ko'rsatish belgilari, tarkibi, tasnifi, tadqiqotchilarning yuksak xizmat ko'rsatish tushunchasiga bo'lgan yondashuvlari, O'zbekiston davlat mukofotlari to'g'risidagi qonunchilikda yuksak xizmat ko'rsatishning ifodalanishi masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: rag'batlantirish, huquqiy siyosat, yuksak xizmat, yuksak xizmat tushunchasi, belgilari, tasnifi, qonunchilikda yuksak xizmatning ifodalanishi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI6Y2025N23>

Yangi O'zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat barpo etish yo'lida sobitqadamlik bilan olg'a bormoqda. Bu yo'lda Vatani, xalqi, davlatiga sadoqat bilan xizmat qiladigan fuqarolar va ularning birlashmalari, butun jamiyat yelkama-yelka turib faoliyat ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekistonga xalqimizning orzu-intilishlarini teran anglaydigan, unga sadoqat bilan xizmat qilishni muqaddas burch, deb biladigan, bilimdon va qat'iyatli rahbarlar zarur. Davlat xizmatiga yuksak intellektual salohiyat va yangicha tafakkurga ega, mustaqil fikrlovchi, vatanparvar va o'z xalqiga sodiq, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan, yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilishga qaratilgan kadrlar siyosatini davom ettiramiz"[1.–B.91-92.].

Hozirgi sharoitda shaxsning ijtimoiy faol yuksak xizmati masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Yuksak xizmat ko'rsatish bugungi kunda amaliyotda tez-tez foydalanilayotgan huquqiy rag'batlar singari o'ta samarador huquqiy vositani qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yuksak xizmatlar davlat, umuman butun jamiyatga, o'zining miqyosiga ko'ra, odatiy harakatlar natijasidan bir necha barobar ortiq foydali natijalar olib keladi va ijtimoiy taraqqiyotning bosh

omili bo'lib hisoblanadi. «Yuksak xizmat» tushunchasi har qanday jamiyatning hayotiy faoliyatida kechayotgan o'ta muhim jarayonlarni ifodalaydi[2.–S.3.].

Shunga qaramay mazkur huquqiy tushuncha huquqshunoslik fanlarida nazariy jihatdan tadqiq etilmagan. Prof. V.N. Kudryavsev fikricha, huquqiy rag'batlantirish – bu muayyan yuksak xizmatlar uchun mukofotlashdir. Lekin ushbu tushuncha ishlab chiqilmagan, aniq huquqiy mazmun bilan to'ldirilmagan[3.–S.87.].

Yuridik javobgarlikning asosi sifatida huquqbuzarlik to'g'risida juda ko'p tadqiqotlar olib borilgan, qonunchilikda huquqbuzarlikning tushunchasi va tarkibi mustahkamlab qo'yilgan. Lekin huquqiy rag'batlantirish asosi sifatida yuksak xizmatlar to'g'risida tadqiqotlar mutlaqo yo'q. Huquq ijodkorligi va huquqni qo'llovchi organlar «yuksak xizmatlar» tushunchasini turli darajadagi normativ va huquqni tatbiq etish hujjatlarida qo'llashda yagona nuqtai nazardan yondashmaydilar. Natijada rag'batlantiruvchi faoliyatda subyektivizm, suiiste'molliklarga yo'l qo'yiladi[4.–S.4.].

“Yuksak xizmat” tushunchasiga aniqlik kiritish, mustaqil huquqiy vosita va ham huquqiy tartibga solish metodi sifatida rag'batlantirishni qo'llashda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Huquqshunoslik fani oldida rag'batlantirishni qo'llash uchun yagona va so'zsiz asos bo'lgan shaxsning yuksak xizmatini har tomonlama tahlil etish masalasi o'ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki nima, qachon va qanday holatda rag'batlantirilishi lozimligini aniq bilish, qonunchilikda rag'batlantiruvchi normalarni ishlab chiqish va mustahkamlashga imkoniyat beradi[2.–S.10.].

Mazkur holatda «yuksak xizmatlar» tushunchasining mazmunini nima tashkil etishini aniq tasavvur etish o'ta muhimdir. Huquqshunoslar uchun yuksak xizmatlarni aniq tushunish, uning belgilari, tasnifi va yuridik tarkibi katta ahamiyatga ega. Chunki bunda shaxsning tegishli xulq-atvoriga nisbatan davlatning huquqiy ahamiyatga molik munosabati ifodalanadi. Shuning uchun yuksak xulq-atvor, yuksak xizmat tushunchasining ilmiy asoslangan konsepsiyasi ishlab chiqilishi zarur.

Huquqiy rag'batlantirishning asosiy shakli sifatida davlat mukofotlari tahlil etilar ekan, avvalambor yuksak xizmat tushunchasi, uning boshqa huquqiy xatti-harakatlardan farqlovchi muhim belgilarini ko'rsatib o'tish lozim. Yuksak xizmatning muhim belgilariga quyidagilarni kiritish mumkin: *birinchisi*, tashqi namoyon bo'lish shakli – odatiy huquqiy xatti-harakat doirasidan chetga chiquvchi, faol ijobiy harakat; *ikkinchisi*, aniq moddiylashgan harakat – aniq ijobiy natija; *uchinchisi*, faqat shaxs (shaxslarga) foyda keltiruvchi emas, balki butun jamiyat, davlatga foyda keltiruvchi natija; *to'rtinchisi*, huquq subyekti tomonidan muayyan sabablarga ko'ra (yuksak axloqiylik, axloqiy-moddiy manfaatdorlik, jamiyat, alohida shaxslar manfaati uchun, ko'p hollarda o'ziga zarar bo'lsada, ichki e'tiqod bilan muayyan harakatlarni amalga oshirish) anglangan holda maqsadga yo'naltirilgan harakat mahsuli sifatida erishilgan natija; *beshinchi*, davlat organlari tomonidan loyiq nomzodlarni mukofotlash uchun ishlab chiqilgan baholash mezonlariga tushadigan natija[5.–S.84-89; 6.–S.16-17.].

Demak, yuksak xizmat huquq subyekting maqsadga yo'naltirilgan, odatiy huquqiy xatti-harakat doirasidan chetga chiquvchi, davlat, jamiyat yoki alohida shaxslarga katta foyda keltiradigan, davlat organi tomonidan mukofotlash uchun faktik asos deb baholangan harakati natijasidir[2.–S.17.].

Duel V.M.ning ta'kidlashicha, xizmat ko'rsatish – bu huquq subyekting odatiy huquqiy xatti-harakati doirasidan chiquvchi, maqsadga yo'naltirilgan, davlat, jamiyat va alohida

shaxslarga katta foyda keltiradigan, davlat organlari tomonidan eng loyiq nomzodlarni mukofotlash maqsadida ishlab chiqilgan baholash mezonlariga muvofiq keluvchi faoliyati natijasidir[6.–S.10.].

Tipikina Ye.V. yuksak xulq-atvorga quyidagicha ta'rif beradi: «yuksak xulq-atvor – bu normativ mustahkamlangan, odatiy, zarur xulq-atvordan ustun bo'lgan, rag'batlantirish chorasini qo'llashni taqozo etadigan, ham alohida shaxslar, davlat va butun jamiyat uchun o'zaro manfaatli ijtimoiy-faol, o'ta foydali, lozim huquqiy xulq-atvordir. Yuksak xulq-atvor – bu oddiy huquqiy xulq-atvor bo'lmasdan, u huquqiy xulq-atvorning oliy shakli, huquqqa muvofiqlikning oliy darajasidir. Yuksak xulq-atvorning o'zagini yuksak xizmat tashkil etadi[2.–S.7-8.].

Yuksak xizmat esa – subyekt tomonidan o'zining majburiyatlarini oshirib bajarishda, yoki u tomonidan umumtan olingan foydali natijaga erishishda, o'zining miqyosiga ko'ra, oddiy harakatlar miqyosidan oshib ketadigan va rag'batlantirish choralarini qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan ixtiyoriy, lozim, ongli – irodaviy, vijdonan, ijtimoiy-faol huquqiy xatti-harakat hisoblanadi[2.–S.8.].

Yuksak xizmat turli mezonlar asosida tasniflashini mumkin: *subyekt tarkibiga ko'ra* — jamoaviy va yakka shakldagi; *ijtimoiy ahamiyatligi darajasiga ko'ra* – oddiy, maxsus, alohida, o'ta yuksak, o'ta ahamiyatli; *qonunchilikda ifodalanish shakliga ko'ra* – bevosita yuksak xizmat va yuksak xulq-atvorning boshqa shakllari; *faoliyat tarmog'i (sohasi)ga ko'ra* – mehnat, xizmat (harbiy yuksak xizmatlar, huquqni muhofaza qilish sohasidagi yuksak xizmatlar), qonun ijodkorlik faoliyatidagi yuksak xizmatlar va h.k. [2.–S. 8.].

Yuksak xizmat ko'rsatishni tasniflash – bu rag'batlantiruvchi huquq normalarida ko'zda tutilgan yuksak xizmat ko'rsatishning aniq tarkibi bilan amalda sodir etilgan xatti-harakat o'rtasidagi muvofiqlik, aynanlikni o'rnatishdan iborat[2.–S.8.].

Yuksak xizmatlar tarkibi – bu yuksak xizmat mohiyatining ichki ifodasi, tashqi ifodalangan ijtimoiy foydali, huquqiy xatti-harakatni yuksak xizmat sifatida tavsiflashga imkon beruvchi rag'batlantiruvchi huquq normasida mustahkamlangan obyektiv va subyektiv belgilari tizimidir.

Yuksak xizmat elementi – bu uning tarkibiy qismi bo'lib, o'zida yuksak xizmat ko'rsatish xulq-atvorining turli tomonlariga muvofiq keluvchi belgilar guruhini qamrab oladi. Yuksak xizmatning har bir tarkibiy qismi o'zida obyektiv va subyektiv elementlarni mujassamlashtiradi. Obyektiv elementlarga yuksak xizmatning obyeksi va obyektiv tomoni; subyektiv elementlarga – yuksak xizmatning subyeksi va subyektiv tomoni tegishlidir. Rag'batlantirishning shartlaridan biri yuksak xizmat ko'rsatish xulq-atvori obyektiv va subyektiv elementlar tarkibining bir butunligi hisoblanadi. Faqat ularning yig'indisi yuksak xizmat tarkibi mavjudligi to'g'risida xulosa qilishga imkon beradi.

Yuksak xizmat subyeksi – bu yuksak xizmat ko'rsatgan aqli raso jismoniy shaxs (yakka tartibdagi shaxs) va jamoa (huquqiy layoqatga ega yuridik shaxs, ijodiy guruh, fuqarolarning boshqa birlashmalari, davlat hokimiyati organlari, o'zini-o'zi boshqarish organlari, tuman, shahar, viloyat va boshqalar. Yuksak xizmat ko'rsatishning yakka subyeksi umumiy va maxsus bo'ladi[2.–S.9.].

Yuksak xizmatning obyeksi – bu yuksak xizmat ko'rsatish xatti-harakati qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir. Jamiyat uchun yuksak xizmat obyeksi qanchalik muhim va qimmatli bo'lsa, uning darajasi ham shunchalik yuqori hisoblanadi. Yuksak xizmatning obyektleri jamiyat

hayotiy faoliyati sohalariga bog'liq ravishda turlarga bo'linadi. Ijtimoiy munosabatlar qanchalik xilma-xil bo'lsa, yuksak xizmat obyektlari ham turlichadir.

Yuksak xizmatning subyektiv tomoni – shaxsni o'zining yuksak darajadagi xatti-harakatiga va uning oqibatlariga nisbatan subyektiv (ruhiy) munosabatini tavsiflovchi belgilar yig'indisidir.

Yuksak xizmatning subyektiv tomonini quyidagi subyektiv belgilar tavsiflaydi: a) shaxsni o'zining yuksak darajadagi xatti-harakati va uning oqibatlariga nisbatan ikki shaklda namoyon bo'ladigan subyektiv munosabati: yuksak xizmat subyekti o'z harakatining ijtimoiy foydaliligini anglaydi va uni sodir etishni istaydi, o'zining miqyosiga ko'ra odatiy harakatlar natijasidan ortiq bo'lgan, umumtan olingan foydali natija shaklidagi oqibatlarning vujudga kelishi muqarrarligini yoki imkoniyatini oldindan his etadi va umum manfaati uchun uning vujudga kelishini istaydi; yuksak xizmat subyekti o'z harakatlarining ijtimoiy foydali ekanligini rasman anglaydi, uni faqat yuzaki ravishda, rag'batlantirishni ko'zlab amalga oshiradi, yuksak natijaga erishish imkoniyatini yoki vujudga kelishi muqarrarligini oldindan ko'ra biladi va faqat rag'batlantirilish, e'tibor, shuhrat uchun unga erishishga intiladi; b) motiv; v) maqsad; g) hissiyot[2.–S.9.].

Yuksak xizmatning obyektiv tomoni – obyektiv borliqda yuksak xizmatning tashqi namoyon bo'lishi, yuksak xizmatni tavsiflovchi tashqi belgilar yig'indisidir. Yuksak xizmat obyektiv tomonini quyidagi belgilar tavsiflaydi: yuksak xizmat xatti-harakati; oqibat; yuksak xizmat xatti-harakati bilan vujudga kelgan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish. Qo'shimcha belgilar bo'lib: yuksak xizmat ko'rsatish xatti-harakatini sodir etish vaqti, joyi, shart-sharoiti, usullari va vositalari hisoblanadi.

O'z navbatida yuksak xizmatni rag'batlantiruvchi huquqiy normalarda aniq va batafsil bayon etilishi, huquqiy rag'batlantirish samaradorligini oshirishga ko'maklashadi, shu bilan birga ularni ham nazariy tadqiq etish va ham rag'batlantiruvchi huquqiy amaliyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy rag'batlantirishning belgilari ajratib ko'rsatilganda, ularning orasida eng muhimi yuksak xizmat ekanligi ta'kidlanadi. Yuksak xizmat – shart-sharoit, huquqiy rag'batlantirishni qo'llash uchun asosdir.

Xizmat ko'rsatish va rag'batlantirish o'rtasida qat'iy genetik bog'liqlik mavjudligini qadimdayoq bilganlar. E.Rotterdamskiyning fikricha, qayerda xizmat ko'rsatishga joy bo'lmasa, u yerda jazolash uchun ham va taqdirlash uchun ham o'rin yo'qdir[7.–S.260.]. O'z vaqtida R.Iering ta'kidlab o'tganidek, rag'batlantirish jazolashga qarama-qarshidir; jamiyat o'z oldida aybdor bo'lganni jazolaydi, kim xizmat ko'rsatsa uni taqdirlaydi[8.–S.121.].

Ko'pchilik hollarda normativ hujjat yoki rag'batlantiruvchi huquqni qo'llovchi aktda xizmat ko'rsatish to'g'risida so'z boradi, shu bilan xizmat ko'rsatish va rag'batlantirishning bog'liqligi ta'kidlanadi. Lekin «xizmat ko'rsatish» tushunchasi turli darajadagi hujjatlarda qo'llansa-da, unga ta'rif berilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining “Davlat mukofotlari to'g'risida”gi (11.04.2018-y.) Qonunda belgilanganidek, “davlat mukofotlari fuqarolarni ularning mamlakat mustaqilligini mustahkamlashga, tinchlik va barqarorlikni saqlashga, mamlakatning iqtisodiy, siyosiy, sotsial, ilmiy, intellektual, ma'naviy salohiyatini hamda mudofaa qudratini oshirishga qo'shgan hissasi, davlat va xalq oldidagi faoliyatning ijtimoiy, xayriya, gumanitar sohalaridagi hamda boshqa sohalaridagi xizmatlari uchun rag'batlantirishning oliy shaklidir” [9.].

O'zbekistonning alohida davlat mukofotlarini ta'sis etish to'g'risidagi qonunlarida ham ko'proq "yuksak xizmat", "alohida xizmat", "ulkan xizmat" ko'rsatish to'g'risidagi qoidalar mustahkamlangan. Jumladan, "O'zbekiston Qahramoni" unovni va oltin medalini ta'sis etish to'g'risidagi qonun va qonun bilan tasdiqlangan nizomga binoan, "O'zbekiston Qahramoni" unvoni oliy darajadagi mukofot bo'lib, O'zbekiston Respublikasining fuqarolariga davlat va xalq oldidagi qahramonona jasorat ko'rsatish bilan bog'liq xizmatlari uchun beriladi[10.]; yoki, "Amir Temur ordenini ta'sis etish to'g'risida"gi qonun bilan tasdiqlangan "Amir Temur" ordeni to'g'risidagi nizomga binoan, "Amir Temur" ordeni bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari davlatchilikni mustahkamlashdagi ulkan xizmatlari, me'morchilikni, ilm-fan, adabiyot va san'atni, shu jumladan harbiy mahoratni rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissalar uchun mukofotlanadilar. "Amir Temur" ordeni bilan davlatlararo hamkorlikni, tinchlikni hamda xalqlar o'rtasida do'stlikni mustahkamlash ishiga alohida hissa qo'shganlik uchun ham taqdirlanadilar[11.].

Xizmat ko'rsatish qonunchilikda qanday tartibga solinganligiga e'tibor beradigan bo'lsak, uning mazmunida «yuqori darajada oshirib bajarish» borligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, «Mardlik uchun», «Qahramonlik uchun», «Buyuk xizmatlari uchun», «Yuksak natijalari uchun», «Ko'p yillik samarali faoliyati uchun», «ko'p yillik vijdonli mehnati uchun». Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz uch yilligi munosabati bilan davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi Farmonida mukofotlash asoslari quyidagicha keltiriladi: "Mamlakatimizning iqtisodiy qudratini mustahkamlash, barcha soha va tarmoqlarda islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish borasidagi ko'p yillik samarali mehnati, yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini ta'minlash, Yangi O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzini yuksaltirishga qo'shgan munosib hissasi, ilg'or innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, hududlar infratuzilmasini jadal rivojlantirishdagi ulkan xizmatlari, jamiyatimizda ijtimoiy barqarorlikni saqlash, ma'naviy yangilanishga erishish, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yo'lidagi ibratli faoliyati hamda jamoat ishlaridagi faol ishtiroki" [12.].

Xizmat ko'rsatishni baholash ham qiyin masala hisoblanadi. O.M.Kiselevaning fikricha, «xizmat ko'rsatish – bu asosida bir tomondan, subyektlarning maqsadi va motivi, ikkinchi tomondan, rag'batlantirish asosini tashkil etuvchi yuridik ahamiyatga molik ishlar yotuvchi ijtimoiy faol harakat hisoblanadi». Boshqacha qilib aytganda, faqatgina ijtimoiy foydali faoliyat yuridik fakt sifatida baholanishi mumkin. Shuning uchun xizmat ko'rsatishni «obyektiv baho» orqali emas, «faoliyat», «xulq-atvor», «xizmat» tushunchalari orqali ifodalash to'g'ri bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, xizmat ko'rsatish – bu o'z vazifalarini yuqori darajada oshirib bajarish yoki umume'tirof etilgan foydali natijaga erishish tufayli rag'batlantirish choralari qo'llaniladigan vijdonan bajariladigan harakat hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish quyidagi xususiyatlarga ega:

a) xizmat ko'rsatish o'z pozitiv majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq ijtimoiy faol harakatlarda namoyon bo'ladi.

b) xizmat ko'rsatish – bu shaxsning o'z vazifalarini vijdonan bajarishidir. V.N.Kudryavsevning fikricha, «xizmat ko'rsatish pozitiv motiv va maqsadda o'z ifodasini topgan

shaxsning nafaqat obyektiv tashqi harakatlari, o'z vazifasiga bo'lgan ichki mas'uliyat bilan yondashishi hamdir».

v) xizmat ko'rsatish shaxsning o'z vazifalarini yuqori darajada oshirib bajarishi umume'tirof etilgan foydali natijalarga erishishi hisoblanadi. Bunda harakatlar o'z vazifalari doirasidan chetga chiqadi. Lekin bunday holatda huquqbuzarlik kabi pastga emas, balki yuqoriga qarab qonun doirasidan chetga chiqish kuzatiladi. Bunda oddiy harakatlarga nisbatan ulkan natijalar tufayli ulardan o'tib ketgan harakatlar haqida so'z boradi. Rag'batlantirish alohida xizmatlar, mardlik va qahramonlik, belgilangan me'yorlardan oshirib bajarish (ish faoliyatiga yangilik kiritib, uni qo'llash, kasbiy mahorat va boshqalar) uchun belgilanadi.

g) huquqbuzarlikka nisbatan jazo choralari qo'llanilganidek, xizmat ko'rsatishda ham rag'batlantirish choralari qo'llaniladi.

Xizmat ko'rsatganlik uchun (rag'batlantirish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilanganidek) uning darajasiga qarab rag'batlantirish choralari belgilanadi. Bunda xizmat ko'rsatish rag'batlantirishning qaysi turi qo'llanilishini belgilashda asos bo'ladi. Bunda quyidagi tizimga mos keluvchi xizmat ko'rsatish tasnifi muhim ahamiyatga ega.

1) xizmat ko'rsatishning darajasiga qarab: tashkilot, muassasaning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq xizmat ko'rsatish (ushbu munosabatlar umumiy asoslarda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida belgilangan bo'lib, jamoaviy shartnoma va ichki tartib qoidalarida ular yanada aniqroq yoritilgan); jamoat birlashmalari va notijorat tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq xizmat ko'rsatish.

2) xizmat ko'rsatishning qanday sharoitlarda amalga oshirilganligiga qarab: oddiy holatlarda (ko'p yillik vijdonan mehnat) va favqulodda holatlarda (mardlik, qahramonlik ko'rsatish) turlariga bo'linadi.

3) erishilgan umume'tirof etilgan natijaning xarakteriga ko'ra xizmat ko'rsatish aniq, ya'ni jamiyat uchun foydali (yong'in paytida qahramonlik ko'rsatish, cho'kayotgan odamni qutqarish, ilmiy kashfiyot qilish va boshqalar) va shartli (jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish, huquqbuzarning yetkazgan zararni ixtiyoriy qoplashi, jazoni ijro etish muassasalarida jazoni o'tayotgan vaqtda namunali xulq atvor ko'rsatish) turlarga bo'linadi.

4) subyektlar doirasiga qarab xizmat ko'rsatish jamoaviy va shaxsiy bo'lishi mumkin. Agarda xizmat ko'rsatish bir shaxs tomonidan emas, balki jamoaviy ko'pchilik (laboratoriya, kafedra, korxona, muassasa, tashkilot) tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, jamoaviy xizmat ko'rsatish hisoblanadi.

5) ijtimoiy foydali tomonlarining darajasiga qarab xizmat ko'rsatish oddiy va o'ziga xos turlarga bo'linadi. O'ziga xos xizmat ko'rsatish davlat mukofotlari bilan oliy darajada rag'batlantiriladi.

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, «xizmat ko'rsatish» tushunchasini qonunchilikda aniq shakllantirish lozim. Bu esa kelajakda huquqiy rag'batlantirishlarni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish, qonunchilikda belgilanadigan huquqiy rag'batlantirishlarning samaradorligini oshirish imkonini beradi. Xizmat ko'rsatishning o'ziga xos jihatlarini o'rganish orqali huquqiy rag'batlantirish mexanizmini tartibga solish, huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash jarayoniga ijobiy ta'sir qilishga erishish mumkin.

Shunday qilib, mukofotlash yordamida individning ijtimoiy faolligini oshirish va ijtimoiy foydali xulq-atvorga erishish maqsadida, huquqda ijobiy rag'batlardan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi. Fan va amaliyot manfaatlari ehtiyoji asosida huquqda rag'batlantirish

muammosini tadqiq etish huquqiy demokratik davlat rivojlanishi yo'lidan boruvchi jamiyat hayotida tashkiliy ibtidolarni to'raligicha ochilishini ta'minlash uchun huquqning rag'batlantiruvchi me'yorlari samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlashga imkon beradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchchi nashri. –Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. –B.91-92.
2. Типикина Е. В. Заслуга как основание для правового поощрения: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. 12.00.01 - Теория и история права и государства ; История учений о праве и государстве /Е. В. Типикина; Науч. рук. А. В. Малько. -Саратов, 2008. –С. 3.
3. Кудрявцев В.Н. Эффективность правовых норм -М., 1980. – 280с.
4. Уздимаева Н.И., Кускин А.С. Заслуга как основание для правового поощрения // <https://cyberleninka.ru/article/n/zasluga-kak-osnovanie-pravovogo-pooschreniya/viewer>
5. Петров А.Я. Государственные награды по российскому праву//Образование и право, 2020. № 3. –С.84-89.
6. Дуэль В. М. Государственные награды в российском праве: Проблемы теории и практики: Автореф. дисс. на соискание ученой степени к.ю.н. –22 с.
7. Роттердамский Э. Философские произведения. Пер. и коммент. Ю. М. Каган. — М. : Наука, 1986. — 704 с.
8. . Иеринг, Р. Избранные труды / Р. Иеринг. — Самара, 2003. — 618 с.
9. O'zbekiston Respublikasining "Davlat mukofotlari to'g'risida"gi qonuni (Yangi tahrirda) //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2018-y., 03/18/473/1058-son; 05.09.2019-y., 03/19/564/3690-son; 12.03.2020-y., 03/20/609/0287-son, 27.05.2020-y., 03/20/620/0667-son, 27.05.2020-y., 03/20/621/0668-son, 10.06.2020-y., 03/20/622/0744-son, 01.12.2020-y., 03/20/650/1576-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 16.08.2022-y., 03/22/789/0742-son; 30.08.2024-y., 03/24/952/0678-son; 19.03.2025-y., 03/25/1048/0255-son
10. "O'zbekiston Qahramoni" unvoni to'g'risidagi Nizom // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-y., 5-son, 113-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Axborotnomasi, 1996-y., 9-son, 141-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 51-son, 514-modda; 2017-y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son
11. O'zbekiston Respublikasining "Amir Temur ordenini ta'sis etish to'g'risida"gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 5-6-son, 63-modda; 1997-y., 4-5-son, 126-modda; 2003-y., 9-10-son, 149-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz uch yilligi munosabati bilan davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi Farmoni // <https://president.uz/uz/lists/view/7492>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/6 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).